

## YURSANG SAYOQ, YEYSAN TAYOQ

Bir kampirning bitta ulog'i-yu, bitta buzog'i bor ekan. O'sha uloq bilan buzog maslahatni bir joyga qo'yib, tong bilan sayoliatga chiqib ketishibdi. Yurib-yurib bir buzuq qo'rg'onga yetib kelishibdi.

Uloq mahmadanaroq, buzog anqovroq ekan, sayoliatga chiqishni ham uloq boshlagan ekan. Qo'rg'onning oldiga kelgach:

- Sen shu yerda kutib tur, men kirib chiqay-chi, bu qo'rg'onda nima bor ekan, - debdi uloq.

Qo'rg'on ichiga kirgan ekan, bir to'da yovvoyi hayvonlarga duch kelibdi. Ularning boshlig'i arslon ekan, atrofida bo'ri, tulki, shaqal, ayiq xizmatda ekan.

- Ana, ov o'z oyog'idan xadi, - debdi tulki suyunib.

Bu gapni eshitgan uloq titrab:

- Tashqarida sherigim ham bor, mendan kattaroq, go'shtliroq, boshlab olib kiray-chi, - deb ortiga qaytibdi. Yugurib chiqib buzoqni qo'rg'onning baland tomiga chiqarib qo'yibdi. O'zi ham bir sakrab chiqib olibdi.

Yovvoyi hayvonlar uloqning sherigi bilan kiravermaganligidan xavotir olib, tulkini chiqaribdi. Tulki qarasa, uloq yo'q. Tili osilib arslonning oldiga kiribdi:

- Taqsir, nima deysizki, uloq ham, uning sherigi ham yo'q.

Hamma hayvonlar to'dalashib tashqariga chiqishibdi. Shaqal bular qayerda bo'lishi mumkin, uzoqqa ketolmagandir, deb fol ochibdi. Fol ochib ko'zini osmonga qadasa, buzog bilan uloq qo'rg'onning baland tomida turganmish. Bu yirtqichlarning vahshatini ko'rgan buzoqning tizzalari qaltirab, bo'g'otning chetida turibdi emasmi, tap etib yerga qulabdi. Buzog to'rt oyog'ini tik qilib shaqalning ustiga tushayotgan ekan. Uloq:

- O'sha folchini ushlang, o'shani yeyishdan boshlaymiz, - deb baqiribdi. Bu gapni eshitgan yirtqichlarning o'takasi yorilib, ayniqsa shaqalning esi teskari bo'lib, bir qochish qilibdi, buni ko'rgan yirtqichlar uning ketidan poyga qo'yishibdi.

Buzog omon-eson yerga tushgach, uloq ham yoniga tushib, yirtqichlardan berkinishibdi.

**“Osiyo”**

Erkin Yusupov  
nashrga tayyorlovchi